

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

BALTASHOV SULTANIYAZ FARHADOVICH

**AHOLINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA'MINLASHNING
IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI
MISOLIDA)**

08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Baltashov Sultaniyaz Farhadovich

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi misolida)..... 3

Балташов Султанияз Фархадович

Совершенствование экономических механизмов обеспечения населения продуктами питания (на примере сельского хозяйства Республики Каракалпакстан) 27

Baltashov Sultaniyaz Farhadovich

Improving the economic mechanisms of providing the population with food products (on the example of the agriculture of the Republic of Karakalpakstan).... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.01.2020.I.20.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

BALTASHOV SULTANIYAZ FARHADOVICH

**AHOLINI OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BILAN TA‘MINLASHNING
IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH
(QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGI
MISOLIDA)**

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2023

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Iqt1876 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.karsu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.zivonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Nurimbetov Timur Uzakbergenovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ubaydullaev Kayrulla
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xojaniyazov Polat Mnajatdinovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.01.2020.I.20.06 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «05» aprel soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, faks: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (126 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, faks: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «18» mart kuni tarqatildi.

(2023 yil «18» mart dagi 21 raqamli reestr bayonnomasi).



J.K.Sauxanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, i.f.d., professor

R.B.Utemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, PhD

T.Doschanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qeshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda aholi soni hamda oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning sezilarli tarzda oshib borishi sharoitida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash va qayta ishlash hajmi hamda jahon bozorlarida xaridorgir bo'lgan mahsulotlar eksporti ko'lamini oshirishda qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'rnini ortib bormoqda. Zero, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "2050 yilga borib jahon aholisi soni 9,2 mlrd. kishiga etishi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishni 70 foizga oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda"¹. Aholini sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanish darajasiga bog'liq. Lekin, jahon mamlakatlari bo'yicha qishloq xo'jaligi tarmog'ining bir tekis rivojlanmaganligini hisobga olgan holda, aksariyat mamlakatlarda aholini arzon va sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida dunyo aholisining jadal sur'atlarda ko'payib borishi bilan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining cheklangan o'sish imkoniyatlari o'rtasidagi tafovutni qisqartirishga yo'naltirilgan qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Oziq-ovqat dasturini hal etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish, atrof-muhitning ekologik muammolarini yumshatish, iqlim o'zgarishlari oqibatlarining oldini olish, tez-tez takrorlanayotgan qurg'oqchilik va suv resurslari taqchilligi, sug'orish uchun er osti suvlarining tugab borishi, irrigatsiya, melioratsiya va erlarning unumdorligini qayta tiklashga yo'naltiriladigan investitsiyalarning etarli emasligi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga oid muammolarini hal etish kabilar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida barqaror rivojlanishga erishish, aholi farovonligini va turmush darajasini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining 30-maqсадida "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali dehqon va fermerlar daromadini kamida 2 baravar oshirish, qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga etkazish"² vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirish respublika aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash uchun hududlarning ishlab chiqarish potentsialini aniqlash, aholi talabidan ortiqcha mahsulot ishlab chiqaradigan hududlardan qishloq xo'jaligi rivojlanmagan hududlarga tashish mexanizmini shakllantirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarining integratsiyasini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning bajarilishini taqozo etadi.

¹ Pozabotimsya o budumem sel'skogo xozyaystva. – www.bayer.ru

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022, PF-60-son. <https://lex.uz/docs/5841063>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2018 yil 16 yanvardagi PF-5303-son “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020 yil 11 noyabrdagi PQ-4889-son “2020-2023 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 15 martdagi 135-son “Ichki iste‘mol bozorini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta‘minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Aholini qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash masalalarining asosiy nazariyalari A.I.Altuxov, A.V.Korbut, V.I.Nazarenko, Yu.A.Novoselov, E.A.Fedulova, A.Robertson, A.Smit, A.Tompson, Yu.Terent‘ev, L.S.Cheshinskiy singari taniqli xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan³.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini hamda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari o‘zbekistonlik olimlar W.P.Umurzakov, Q.A.Choriev, N.S.Xushmatov, F.X.Nazarova, G.A.Samatov, D.N.Saidova, N.A.Aimbetov, J.K.Sauxanov, T.U.Nurimbetov va boshqalarning tadqiqotlarida keltirilgan⁴.

³Altuxov, A.I. Razvitie prodovol'stvennogo rymka Rossii. Ch.1./A.I. Altuxov, G.I. Makin, M. A. Babkov. – M.: Agri-Press, 1999. –336 s.; Korbut, A. V. Prodovol'stvennaya bezopasnost' naseleniya Rossii: sostoyanie, tendencii, problemy/A.V.Korbut // Analiticheskiy vestnik Soveta Federacii FS RF. – M. – 2002. – № 26 (182). – s. 4–18.; Nazarenko, V.I. Prodovol'stvennaya bezopasnost' (v mire i v Rossii) / V.I. Nazarenko. – M.: Pamyatniki istoricheskoy mysli, 2011. – 286 s.; Novoselov, Yu.A. O prodovol'stvennoy bezopasnosti Rossii / Yu. A. Novoselov, A.G.Nazarchuk // Vestn. Sib. un-ta potreb. koop., 2004. - VbIP. 2. - s. 38-48.; Modeling of the agribusiness enterprise activity on the basis of the balanced scorecard / E.A.Fedulova, A. V. Medvedev, P. D. Kosinskiy, S. A. Kononova, P. N. Pobedash// Foods and Raw materials. Vol. 4, 2016. -№1.-pp.154-162.; WHO regional publications. Food and health in Europe : a new basis for action / Aileen Robertson, Cristina Tirado, Tim Lobstein, Marco Jermini,Cecile Knai, Jørgen H. Jensen, Anna Ferro-Luzzi i W.P.T. James: European series (№96), 2004. – 388 P.; Smit A. Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva naroda. – Petrozavodsk: Petrokom, 1993. – 320 s.; Tompson A.A. Strategicheskiy menedjment: koncepcii i situacii: Uchebnik dlya VUZov. Per. s angl. – M.: INFRA-M, 2012. – 119 s.; Terent'ev, Yu. Metodika opredeleniya urovnya prodovol'stvennoy bezopasnosti [Elektronnyy resurs] / Yu. Terent'ev. – Rejim dostupa: http://ut55.blogspot.com/2010/10/blog-post_16.html.; Cheshinskiy, L.S. Metodologicheskie problemy nacional'noy prodovol'stvennoy bezopasnosti [Tekst] / L.S. Cheshinskiy // Xlebopechenie Rossii, 1997. – №4. – S. 6 – 8.

⁴Umurzakov U.P., Chariev K.A., Flik R. Zapadnye sel'skoxozyaystvennyye kooperativy i associacii: osnovnyye principy i razlichiya. //Ekonomicheskij vestnik Uzbekistana. №6, 1999. – S.7-11.; Xushmatov N.S. Dehqon (fermer) xo‘jaliklarini tashkil etish samaradorligi va ularning boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarini takomillashtirish. Avtoref. dis. iqt. fan. nomz. – T., 1994. – 22 b.; Nazarova F.X. Agrar tarmoq va milliy model’ //

Respublika aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi sohasining rivojlanish darajasini aniqlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan hududiy aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, shunindek, qishloq xo'jaligi rivojlanmagan hududlarga sifatli arzon qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etkazish, respublika bo'ylab qishloq xo'jaligi mahsulotlar oqimini nazorat qilish, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish borasida tadqiqot olib borish murakkab ilmiy-amaliy masalalardan hisoblanadi. Ushbu muammolarning nazariy va amaliy jihatdan etarli darajada o'rganilmaganligi mazkur tadqiqot ishi yo'nalishini tanlashda asos bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash tizimini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy bozorlarini oziq-ovqat mahsulotlariga to'yinish darajasini aniqlash;

aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning xorij tajribalarini o'rganish va respublikada qo'llash imkoniyatlarini belgilash;

aholiga oziq-ovqat mahsulotlarini tarqatish kanallaridagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

aholini oziq-ovqat mahsulotlarini ta'minlashda katta ahamiyatga ega bo'lgan issiqxona xo'jaliklarining faoliyatini o'rganish va ularni rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

istiqbolda aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini prognoz qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'i va undagi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati olingan.

“O'zbekiston qishloq xo'jaligi” jurnali. №1, 2001. – 6-7 b.; Samatov G'.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. – T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2005. – 508 b.; D.N.Saidova, I.B.Rustamova, Sh.A.Tursunov. “Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi”. O'quv qo'llanma. T.: “O'zR Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi” bosmaxonasi nashriyoti, 2016. – 257 b.; Aimbetov N.A. Kontsepsiya sotsial'no-ekonomicheskogo razvitiya rayonov Respubliki Kara-kalpakstan na osnove ispol'zovaniya imeyushchegosya v regione prirodno-syrg'evogo potentsiala. //Sbornik tezisov V Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya «Problemy ratsional'nogo ispol'zovaniya i ohrana biologicheskix resursov Yujnogo Priaralya». – Nukus: Ilim, 2014. – S.168–169.; Nurimbetov T.U. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash yo'nalishlari. Avtoref. dis. iqt. fan. fal. dok. – T., 2019. – 22 b.;

Tadqiqotning predmetini aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash bilan bog'liq munosabatlar, uslub va usullar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, anketa so'rovi, ekspert baholash, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasini baholashni har bir turdagi mahsulot bo'yicha ta'minlanish o'rtacha koeffitsientiga asoslangan holda tumanlarni yashil ($U_k > 1$), ko'k ($0,9 < U_k < 1$), sariq ($0,65 < U_k < 0,9$) va qizil ($0 < U_k < 0,65$) hududlarga ajratish orqali takomillashtirilgan;

hududlararo agrologistik markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, infratuzilmani yaratish, oziq-ovqat tovarlari sifati va narxlar barqarorligini saqlash hamda eksport hajmini oshirish taklifi asoslangan;

dehqon xo'jaliklarining hududiy uyushmalarini tashkil etish va o'zaro hamkorligini kengaytirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va saqlash, bozordagi narxlar muvozanatini ta'minlash hamda bozor xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar bilan fyuchers shartnomalari tuzish asosida samaradorligini oshirish asoslangan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari iste'mol hajmining 2027 yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

hududiy bozorlarning oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'yinish darajasi aniqlangan va ta'minlanish darajasi past bo'lgan mahsulotlarni iste'mol darajasiga etkazish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi va qayta ishlovchi korxonalarining integratsiyasini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan;

respublikadagi issiqxona xo'jaliklarining ish faoliyati o'rganilgan va ularni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan;

aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashda xorijiy tajribalar o'rganilgan va respublikada qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotni amalga oshirish jarayonida qo'llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar va usullarning tadqiqot maqsadi bilan mosligi hamda ilmiy asoslanganligi, O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari normalari tahlili, statistik ma'lumotlarni taqqoslash, ekonometrik modellashtirish va kompyuter hisob-kitoblari, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o'tgani, shuningdek, olingan natijalarning amaliyotda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan xulosa va tavsiyalardan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi va sanoat korxonalarini integratsiyasini ta‘minlashda, shunindek, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi ta‘minlash bo‘yicha maqsadli dasturlarni qabul qiluvchi mutasaddi tashkilotlarning faoliyatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tarmoq iqtisodiyoti muammolariga oid ilmiy izlanishlarni olib borish, qishloq xo‘jaligi sohasi mutaxassislarini o‘qitish, malakasini oshirish va qayta tayyorlashda “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti”, “Agromarketing”, “Agrar bozorni boshqarish” fanlarini o‘qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlanish darajasini baholashni har bir turdagi mahsulot bo‘yicha ta‘minlanish o‘rtacha koeffitsientiga asoslangan holda tumanlarni yashil ($U_k > 1$), ko‘k ($0,9 < U_k < 1$), sariq ($0,65 < U_k < 0,9$) va qizil ($0 < U_k < 0,65$) hududlarga ajratish orqali takomillashtirish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 14 noyabrdagi 03/016-3286-son ma‘lumotnomasi). Ushbu yangilikning vazirlik ish faoliyatiga joriy etilishi natijasida qishloq xo‘jaligida etishtirilayotgan mahsulotlarga qilinadigan xarajatlarni optimallashtirish va aholini oziq-ovqat mahsulotlariga talabini to‘liq qondirish imkonini bergan;

hududlararo agrologistik markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, infratuzilmani yaratish, oziq-ovqat tovarlari sifati va narxlar barqarorligini saqlash hamda eksport hajmini oshirish taklifi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 14 noyabrdagi 03/016-3286-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish, uning eksport salohiyatini oshirish hamda oziq-ovqat mahsulotlari yo‘qotilishini 25,0%ga kamaytirish imkonini bergan;

dehqon xo‘jaliklarining hududiy uyushmalarini tashkil etish va o‘zaro hamkorligini kengaytirish orqali qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish va saqlash, bozordagi narxlar muvozanatni ta‘minlash hamda bozor xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar bilan fyuchers shartnomalari tuzish asosida samaradorligini oshirish taklifidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturi”ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022 yil 14 noyabrdagi 03/016-3286-

son ma'lumotnomasi). Ushbu yangilikning vazirlik ish faoliyatiga joriy etilishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarning mahsulot etishtirish hajmining oshirilishi, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini iste'molchiga "daladan dasturxongacha" tamoyili asosida etkazib berish natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan narxni 20% kamaytirish imkonini bergan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari iste'mol hajmining 2027 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2022 yil 14 noyabrdagi 03/016-3286-son ma'lumotnomasi). Mazkur prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish Respublika aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashning uzoq muddatli istiqbol ko'rsatkichlarini belgilashda ular o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlashga imkon yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishining natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ishlar, jumladan ularning 10 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, shundan 6 tasi mahalliy, 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan, 5 tasi ilmiy-amaliy anjumanlaridagi ma'ruzalar tezislardir.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya 3 ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 21 ta tahliliy jadval, 23 ta rasmni o'z ichiga olgan holda 118 betda bayon etilgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati izohlab berilgan, ularni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashning nazariy asoslari yoritilib, agro oziq-ovqat bozorining o'rni va ahamiyati, shuningdek, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashning xorij tajribalari tahlili va respublikada qo'llash imkoniyatlari bayon etilgan.

Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki, oziq-ovqat mahsulotlari bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan olinadi. Oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi, sifati inson salomatligining asosi bo'lib hisoblanadi

va aholining ijtimoiy kayfiyati va turmush sifatini shakllantiradi. Bugungi kunda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash alohida olingan mintaqaga uchun ham, umuman mamlakat uchun ham muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi, ayniqsa uning muammoliligi nuqtai nazaridan, faqatgina O'zbekistonga xos bo'lgan masala emas. Mazkur muammo har doim va hamma zamonlarda mavjud bo'lib, hozirgi kunda ham dolzarbligicha qolmoqda va butunjahon xarakteriga ega.

Har qanday bozor tizimida aholi talabini qondirish inqirozni oldini olishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shuning uchun aholi talabini prognozlash oziq-ovqat bozorida samarali iqtisodiy munosabatlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish kanallarini shakllantirish, oziq-ovqat bozorini rivojlantirish va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammolarini bozor mustaqil ravishda hal qila olmaydi. Bu jarayondagi iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishda davlat yordamisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bozor sharoitida iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish va tartibga solishda davlatning eng muhim funktsiya va vazifalarini 1-rasmda ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. Aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashda davlatning - eng muhim vazifalari⁵

Dissertatsiyaning “Qoraqalpog‘iston Respublikasini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish holatining tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida Qoraqalpog‘iston Respublikasi qishloq xo'jaligining rivojlanish tendensiyalari, mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan aholini qishloq xo'jaligi

⁵ Manba: Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan

mahsulotlari bilan ta'minlash holati tahlil qilinib, aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashda agrologistik markazlar va mahsulotlarni tarqatish kanallarining ahamiyati va tahlili bayon qilingan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekistonning shimoli - g'arbida, ya'ni quyi Amudaryo deltasida joylashgan. Umumiy maydoni 166,6 km kvadratni tashkil qilib, Respublika umumiy maydonining 37,2 foizini tashkil qiladi. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududining aksariyat qismi tekisliklardan iborat. Qoraqalpog'iston Respublikasining aholisi 1923,7 ming kishini tashkil qilib, (51 foizi qishloq aholisi) bu O'zbekiston Respublikasi aholisining 5,6 foizini tashkil qiladi. Aholi zichligi o'rtacha milliy ko'rsatkichdan (1 kv.km 75,5 kishi) sezilarli darajada past, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni 11,4 kishini tashkil qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqa viloyatlarga nisbatan suv resurslari bilan ta'minlanish darajasi past. Erlarning sho'rlanish darajasi yuqori, qishloq xo'jaligi erlarining bonitet bali va hosildorligi O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlariga nisbatan past hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarning hosildorligi (bir gektardan, sentner)⁶

Viloyatlar	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari					
	Bug'doy	Kartoshka	Sabzavot	Poliz	Meva	Uzum
O'zbekiston Respublikasi	46,3	227,3	235,6	180,4	118,5	153,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	29,2	119	135,1	118,1	106,3	98,2
Andijon	62,9	254,3	253	270	211,4	224,1
Buxoro	61,9	226	229,7	210,4	217,6	203,8
Jizzax	37,5	192,7	219,8	136,4	79,3	86,9
Qashqadaryo	39,4	236,3	241,1	237,3	100,8	121
Navoiy	48,6	260,3	240,4	260,5	147,3	153,6
Namangan	48,4	185,9	238,6	174,1	108,4	167,5
Samarqand	42,3	292	228,5	207,8	106,2	155,9
Surxandaryo	50,4	217,2	278,4	246,8	104,6	99
Sirdaryo	52,7	157,7	190,8	230,7	84,8	115,4
Toshkent	46,7	241,2	274,3	218,3	57	100,3
Farg'ona	50,2	218,6	230,9	164,6	84,1	270,8
Xorazm	53,2	205,6	252,5	203,7	151,1	175,4

Masalan, bug'doy va uzum hosildorligi respublika bo'yicha eng past ko'rsatkich 29,2 ga/sentner, ya'ni, Andijon viloyatiga nisbatan ikki barobar kam ko'rsatkichni qayd etgan. Uzumning hosildorligi Farg'ona viloyatiga nisbatan qariyb uch barobar kam. Ushbu holatni sabzavot, meva va poliz mahsulotlarida ham ko'rishimiz mumkin.

⁶ Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasini qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlanish darajasi, shunindek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning aholini asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlanish darajasini tahlil qilamiz. Maxalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan mintaqani qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan o‘zini-o‘zi ta‘minlash darajasini aniqlash uchun aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan o‘z-o‘zini ta‘minlash koeffitsientini aniqlashda quyidagi formuladan foydalangan.

$$T_k = \frac{I_x}{A_s \times T_n} \quad (1)$$

Bu erda: T_k – o‘z – o‘zini ta‘minlash koeffitsienti,

I_x – ishlab chiqarish xajmi;

A_s – aholi soni;

T_n – tibbiy norma.

Ushbu formula yordamida har bir qishloq xo‘jaligi mahsulot turi bo‘yicha ta‘minlanish koeffitsientini aniqlash mumkin bo‘ladi. Biz ushbu formuladan foydalanib Qoraqalpog‘iston Respublikasini oxirgi o‘n yilda mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan o‘z-o‘zini ta‘minlash koeffitsientini aniqlaymiz. Qoraqalpog‘iston Respublikasida oxirgi o‘n yildagi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlanish darajasini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval


Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlanish koeffitsienti⁷

Q/x mahsulotlari	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2020-2011
Kartoshka	0,36	0,39	0,42	0,46	0,49	0,53	0,61	0,69	0,81	0,82	+0,46
Sabzavot	0,74	0,84	1,00	1,11	1,16	1,22	1,14	1,17	1,24	1,29	+0,55
Poliz	2,30	2,57	2,90	3,07	3,24	3,58	3,74	3,67	3,94	4,19	+1,89
Meva va rezav	0,24	0,26	0,28	0,31	0,34	0,35	0,38	0,39	0,43	0,44	+0,2
Uzum	0,16	0,17	0,18	0,22	0,23	0,24	0,27	0,29	0,39	0,38	+0,22
Go‘sht	0,64	0,67	0,74	0,78	0,82	0,87	0,92	0,94	0,94	0,96	+0,32
Sut	0,85	0,94	1,12	1,20	1,28	1,36	1,41	1,44	1,45	1,50	+0,65
Tuxum	0,12	0,19	0,32	0,36	0,39	0,44	0,48	0,56	0,58	0,60	+0,48
Asal	0,03	0,04	0,07	0,08	0,08	0,11	0,11	0,13	0,16	0,16	+0,13
Baliq	0,05	0,08	0,11	0,11	0,14	0,19	0,25	0,39	0,51	0,56	+0,51

⁷ Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini mahalliy ishlab chiqaruvchilari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish koeffitsienti oxirgi o'n yilda sezilarli darajada o'sganini ko'rishimiz mumkin. 2011 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida deyarli barcha turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish koeffitsienti past darajada bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. 2020 yilga kelib, sabzavot, poliz, sut va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlanish koeffitsientlari mos ravishda 1,29, 4,19, 1,5 va 0,96 ga teng bo'lgan. Bu shuni ko'rsatadiki, ushbu mahsulotlar bilan aholini ta'minlanish darajasi qoniqarli darajada bo'lib, mintaqa o'z-o'zini ushbu mahsulot turlari bilan to'liq ta'minlay oladi, hattoki eksport potentsiyali ham mavjud. Kartoshka va tuxum mahsulotlarini etishtirish koeffitsienti 2011 yilga nisbatan 2020 yilda mos ravishda 0,36 dan 0,82 ga, 0,12 dan 0,60 ga ko'tarilgan. Lekin, uzum, meva rezavorlar asal va baliq bilan ta'minlanish koeffitsientlari past darajada qolmaqda. Masalan, asal bilan ta'minlanish koeffitsienti 2011 yilda 0,03 ni tashkil qilgan bo'lsa, 2020 yilga kelib 0,16 ni tashkil qilgan. Bu degani ushbu mahsulot turi bilan ta'minlanish darajasi 2011 yilga nisbatan 13 foizga o'sib, 2020 yilda atiga 16 foizni tashkil qiladi.


Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish dinamikasini quyidagi diagrammada ko'rishimiz mumkin (2-rasm).



2-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini 2011-2020 yillarda asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish dinamikasi.⁸

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini hududlar bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng ko'p ulushi Amudaryo (18,5 foiz), To'rtkul (11,0 foiz), Beruniy (13,3 foiz) va Ellikqa'la (11,4 foiz) tumanlariga to'g'ri kelmoqda (3-rasm).

⁸ Manba: Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



3-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishining tumanlar kesmidagi ulushi (foizda)⁹

Ushbu tumanlarning mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasini tahlil qilar ekanmiz, ta'minlanish koeffitsientini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin (3-jadval).

3-jadval Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish koeffitsienti (tumanlar kesimida)¹⁰

Tumanlar	Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari						
	Kartoshka	Sabzavot	Meva	Uzum	Go'sht	Sut	Tuxum
Amudaryo	1,90	3,14	1,38	0,79	1,26	2,11	1,06
Beruniy	0,95	1,50	0,83	0,72	1,42	1,76	0,88
Buzatov	0,87	0,90	0,62	0,27	2,32	3,35	0,87
Qorao'zak	0,93	0,97	0,24	0,20	1,69	1,71	0,67
Kegeyli	0,35	0,85	0,36	0,19	1,15	1,27	0,41
Qo'ng'iro't	0,82	0,84	0,09	0,23	0,77	1,35	0,81
Qonliko'l	0,39	1,77	0,15	0,22	1,42	1,97	0,70
Mo'ynoq	0,96	0,85	0,05	0,03	0,96	1,24	0,44
Nukus	1,41	3,61	0,37	0,60	0,92	1,50	0,65
Taxiyotash	0,49	0,54	0,13	0,23	0,54	1,26	0,28
Taxtakop'ir	1,23	1,01	0,28	0,46	2,17	2,02	0,51
To'rtko'l	0,94	1,15	0,45	0,31	0,84	1,76	0,68
Xo'jayli	0,59	0,74	0,14	0,21	0,82	1,63	0,43
Chimboy	1,05	1,76	0,40	0,24	1,21	1,68	0,72
Shumanoy	0,57	2,04	0,22	0,13	1,16	1,70	0,76
Elliqal'a	0,95	1,44	0,75	0,91	1,29	2,49	0,67
Nukus sh	0,03	0,11	0,01	0,05	0,04	0,04	0,04
QR bo'yicha:	0,82	1,29	0,44	0,38	0,96	1,50	0,60

⁹ Manba: Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹⁰ Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki, Qoraqalpog'iston Respublikasi janubida joylashgan Amudaryo, Beruniy, To'rtkul va Ellikqal'a tumanlarida aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish koeffitsienti boshqa tumanlarga nisbatan yuqori.

Amudaryo tumanida uzumdan tashqari barcha turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan o'z-o'zini ta'minlay oladi. Sabzavot va sut mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi mos ravishda 3 va 2 barobarga teng. Ellikqal'a va Beruniy tumanlarida sabzavot va go'sht bilan ta'minlanish darajasi 1,5 barobarga teng. Sut bilan ta'minlanish darajasi Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 1,5 barobarga teng. Binobarin, sut bilan ta'minlanish koeffitsienti barcha tumanlarda qoniqarli darajada. Respublika bo'yicha eng past ta'minlangan tumanlarga Qo'ng'iro't, Mo'ynaq, Taxi'yotash, Xo'jayli va Sho'manay kiradi. Taxi'yotash tumani deyarli barcha turdagi mahsulotlar bilan ta'minlanish darajasi qoniqarsiz hisoblanadi. Ushbu tumanlar aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanishini yaxshilash uchun alohida dasturlarni, shuningdek, tumanlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qishloq xo'jaligi ekin maydonlarning hosildorligiga va bonitet baliga qarab joylashtirishni talab qiladi.

Tahlil ma'lumotlarini umumlashtirgan holda respublika bo'yicha tumanlarning mahalliy ishlab chiqaruvchilari tomonidan ishlab chiqariladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasini ko'rib chiqamiz. Bu erda biz har bir turdagi mahsulotlar bilan ta'minlanish koeffitsientining o'rtachasini hisoblab chiqishda quyidagi formuladan foydalanamiz.

$$y_k = \frac{\sum_i^n x_i}{n} \quad (2)$$

Bu erda U_k – mahsulotlar bilan umumta'minlanish koeffitsienti,
 x_i - har bir turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish koeffitsienti,

n – qishloq xo'jaligi mahsulotlari soni.

Ushbu formuladan foydalangan holda biz respublika aholisini mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasining umumiy ko'rinishini ko'rishimiz mumkin (2.12 - jadval). Biz ta'minlanish darajasiga qarab tumanlarni yashil ($U_k > 1$), ko'k ($0,9 < U_k < 1$), sariq ($0,65 < U_k < 0,9$) va qizil ($0 < U_k < 0,65$) hududlarga ajratdik.

Tahlil natijalariga ko'ra *yashil tumanlarga* Amudaryo, Buzatov, Nukus, Ellikqal'a, Beruniy va To'rtkul tumanlar kirdi. Ushbu tumanlar respublikada markaziy va janubiy hudida joylashgan bo'lib qishloq xo'jaligi boshqa tumanlarga nisbatan yaxshi rivojlangan. Ushbu tumanlarda suv resurslari bilan ta'minlanish darajasi nisbatan barqaror hisoblanadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqariladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan hudud aholisini to'liq ta'minlay oladi va mahsulotlarni boshqa tumanlarga sotish imkoni mavjud.

Ko'k rang bilan belgilan hududlarga Chimboy, Taxtakopir, Qonliko'l, Shumanoy va Qorao'zak tumanlari kiradi. Ushbu tumanlarda hudud aholisini mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan

ta'minlanish darajasi qoniqarli hisoblanadi. Ushbu tumanlarda asosan go'sht, sut, va sabzavot mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi yuqori hisoblanadi.

Sariq rang bilan belgilangan tumanlarga Kegeyli, Qo'ng'iro't va Xo'jayli tumanlari kiradi. Ushbu tumanlarda uzum, meva va tuxum mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi past ko'rsatkichga ega. Lekin sut mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi talab darajasidan yuqori hisoblanadi.

Qizil rang bilan belgilangan tumanlarga Mo'ynoq va Tahiyotash tumanlari kiradi. Mo'ynoq tumani respublikaning shimoliy hudida joylashgan bo'lib, markazga 220 km masofada joylashgan. Suv resurslari bilan ta'minlash darajasi past, deyarli barcha turdagi mahsulotlar bilan ta'minlanish darajasi qoniqarsiz hisoblanadi. Tahiyotash tumani esa sovet ittifoq davridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo'lib, qishloq xo'jaligi past rivojlangan tumanlarga kiradi (4-jadval).


4-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisini mahalliy ishlab chiqaruvchilari tomonidan asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash darajasi¹¹

Tumanlar	Asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari							U _k
	Kartoshka	Sabzavot	Meva	Uzum	Go'sht	Sut	Tuxum	
Amudaryo	1,90	3,14	1,38	0,79	1,26	2,11	1,06	1,66
Buzatov	0,87	0,90	0,62	0,27	2,32	3,35	0,87	1,31
Nukus	1,41	3,61	0,37	0,60	0,92	1,50	0,65	1,29
Ellikqal'a	0,95	1,44	0,75	0,91	1,29	2,49	0,67	1,21
Beruniy	0,95	1,50	0,83	0,72	1,42	1,76	0,88	1,15
To'rtkul	1,20	1,15	0,70	0,87	0,90	1,76	0,80	1,05
Chimboy	0,90	1,76	0,40	0,24	1,21	1,68	0,72	0,99
Taxtakopir	0,87	1,01	0,28	0,46	1,80	2,02	0,51	0,99
Qonliko'l	0,39	1,77	0,15	0,22	1,42	1,97	0,70	0,95
Shumanoy	0,57	2,04	0,22	0,13	1,16	1,70	0,76	0,94
Qorao'zak	0,93	0,97	0,24	0,20	1,69	1,71	0,67	0,92
Kegeyli	0,42	0,85	0,36	0,40	1,15	1,27	0,50	0,71
Qo'ng'iro't	0,82	0,84	0,09	0,23	0,77	1,35	0,81	0,70
Xo'jayli	0,59	0,74	0,14	0,21	0,82	1,63	0,43	0,65
Mo'ynoq	0,96	0,85	0,05	0,03	0,80	1,10	0,44	0,60
Tahiyotash	0,49	0,54	0,13	0,23	0,54	1,26	0,28	0,50
QR bo'yicha:	0,82	1,29	0,44	0,38	0,96	1,50	0,60	0,86

Biz respublika aholisini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasini quyidagi rasmda ko'rishimiz mumkin (4-rasm).

¹¹ Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



4-rasm. Qoraqalpogʻiston Respublikasi aholisini qishloq xoʻjaligi mahsulotlari bilan taʼminlanish darajasi¹²

Qoraqalpogʻiston Respublikasida sabzavot, poliz, goʻsht va sut mahsulotlarini mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan oʻz-oʻzini taʼminlash imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, ushbu mahsulotlarni qayta ishlash imkoniyati mavjud. Lekin, meva rezavorlar, tuxum, baliq va asal mahsulotlarini etishtirish yaxshi yoʻlga qoʻyilmagan. Respublikada ushbu mahsulotlarni talab darajasida etishtirish uchun etarli imkoniyat va resurslar mavjud. Shuning uchun, respublikada ushbu turdagi mahsulotlarni etishtirish uchun alohida dasturlarni qabul qilishni taqozo etadi.

Hozirgi bosqichda qishloq xoʻjaligi ishlab chiqaruvchilari bilan oziq-ovqat mahsulotlarining chakana va ulgurji sotuvchilari oʻrtasidagi oʻzaro hamkorlikning samarali tizimi zamonaviy axborot marketing texnologiyalari hamda logistika tizimlaridan foydalanishga asoslangan.

“Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida respublikada xalqaro standartlar va sifat talablariga javob beradigan laboratoriyalar, ulgurji bozorlar va logistika markazlari etishmovchiligi bayon qilingan. Shunindek, mazkur farmonda qishloq xoʻjaligini standartlashtirish markazi tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar turlarini takomillashtirish, agrologistika markazlari negizida yagona savdo tizimini (auksion va birja savdolari asosida) joriy etish¹³ kerak ekanligi belgilangan.

Ayni paytda respublika agrosanoat korxonalarida agromarketing etarli darajada rivojlanmagan va qishloq xoʻjaligi ishlab chiqaruvchilarining aksariyati marketingni biznes boshqarishning samarali mexanizmi sifatida qaramaydilar. Korxonalar bozor konʻyunkturasiga va bozorlardagi narxlarning oʻzgarish

¹² Manba: Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

¹³ Oʻzbekiston Respublikasi qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga moʻljallangan strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisidagi” OʻR Prezidentining farmoni.

dinamikasiga o'z vaqtida moslasha olmaydilar va bu ularning faoliyatini iqtisodiy samaradorligini pasayishiga olib keladi. Har bir holatda to'g'ri qaror qabul qilish uchun yil davomida butun mintaqaning turli xududlardagi bozorlarida mahsulot bahosining dinamikasi haqida tezkor ma'lumotlar zarur bo'ladi. Marketing uchun bozor mexanizmlari elementlari va birinchi navbatda bozor kon'yukturasini o'rganish, qishloq xo'jalik mahsulotlariga talab va taklif miqdorini, bozor ishtirokchilari haqidagi ma'lumotlarni bilish zarur. Dehqon bozorlari bilan uzoq muddatli shartnomalarni tuzishda va mahsulot etishtiruvchilarning sotish bilan bog'liq muammolarini oldini olishda ikkala tomon manfaatlarini hisobga olish lozim bo'ladi¹⁴.

Bizning fikrimizcha, respublika bo'ylab qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish kanallarini davlat tomonidan tartibga solish, hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab va taklif, narxlar va boshqa zarur bo'lgan tezkor ma'lumotlar bilan ishlab chiqaruvchilarni o'z vaqtida xabardor qilish zarur. Ushbu sotish kanallarini respublika, shahar, tumanlarda agrologistik markazlarni tashkil qilish orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq (5-rasm).



5-rasm. Aholiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini agrologistik markazlar orqali tarqatish sxemasi (taklif)¹⁵

Biz taklif qilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini realizatsiya sxemasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish vositachilar orqali emas balki, agrologistik

¹⁴ T.Nurimbetov Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash yo'nalishlari.

¹⁵ Manba: Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

markazlar orqali realizatsiya qilinadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida yirik agroxoldinglar yoki agromarketing tashkilotlari mavjud emas. Lekin, keyinchalik ushbu tashkilotlarning faoliyat yuritishi respublikada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini samarali sotish kanallarini barpo etishga xizmat qiladi. Meva sabzavotlarni oldindan sovutish tizimi mahsulotlarni tashishning dastlabki bosqichida muhim ahamiyat kasb etib, ularning sifatiga ta‘sir qiladi va saqlash muddatini uzaytiradi.

Dissertatsiyaning **“Qoraqalpog‘iston Respublikasini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘nalishlari, Aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan barqaror ta‘minlashda issiqxonalar va parniklar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisini asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining iste‘mol hajmlari prognoz qilingan.

